

**HAMZANING O'ZBEK TEATR TARIXIDA TUTGAN O'RNI***Farrux Usmonov**Qo'qon davlat muzey qo'riqxonasi Ilmiy hodimi*

Annotatsiya Mazkur maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziyning o'zbek milliy teatri shakllanishi va taraqqiyotidagi o'rni ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Qo'qon shahrida tashkil etilgan ilk teatr truppasi, uning faoliyati, repertuari va tashkiliy jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, Hamzaning dramaturg sifatidagi merosi, teatr jamoalarining tushuncha va g'oyaviy yo'nalishi, milliy teatrni davlat teatri darajasiga ko'tarishdagi xizmatlari tahlil etilgan. Maqolada teatr tarixi va Hamzaning ijodiy faoliyati o'zaro bog'liq holda qiyosiy o'rganilgan.

Kalit so'zlar Hamza Hakimzoda Niyoziy, o'zbek teatri, Qo'qon dramtruppasi, jadidchilik, milliy teatr, dramaturgiya, “Boy ila xizmatchi”, teatr tarixi.

Halqni manaviyatini, madaniyatini oshirishda teatrning o'rni beqiyos. Aslida “Teatr ” so'zining manosi “tomoshalar uchun joy ” degan manoni bildiradi. Teatr orqali xalqning dardi, g'am tashvishi va xalq qaxramonlarini bilib olish mumkin. Milliy teatr ko'p yillik tarixga ega bo'lgan san'atdir. U o'z taraqqiyoti mobaynida boshqa qiyofaga kirish, hissiyotni turli harakatlar bilan ifodalash va muqallidlik kabi bosqichlarni bosib o'tib, zamonaviy teatr darajasiga yetdi. Bazi manbalarda teatrni o'zbeklar “Ibratxona ” deb ham atashgan. O'zbek futbolining vatani Qo'qon shahri ekani ko'pchilik uchun malum, lekin o'zbek teatrining vatani ham aynan Qo'qon ekanligi ko'pchilik uchun yangilik bo'lishi mumkin. Qo'qon shahridagi birinchi teatr truppasiga esa o'z davrining etuk arbobi, shoir, bastakor, yozuvchi, muallim va jamoat arbobi Hamza Hakimzoda Niyoziy asos solgan edi. Hamzaning teatrga mexr berishiga sabab esa 1911-12 yillarda tatar sayyor teatr truppasining Qo'qon shahrida bergan konsertlari sabab bo'lgan.

1915 yilning may iyun oylarida Hamza Hakimzoda Niyoziy Qo'qon teatriga (balki birinchi o'zbek teatriga) asos soldi. Hamza ushbu teatrning rahbari va rejissyori, shuningdek, artisti bo'lib xizmat qiladi. Mazkur teatr taraqqiyoti va faoliyatida Mirshohid Miroqilov, Mo'hiddin Qoriyoqubov, Mamajon Rahmonov, Zanjirali Mirzatov kabi teatr arboblarning xizmati katta bo'ldi. Ushbu truppa Mahmud Baratov, Abdulaziz, Holmuhammad Ohundiy, Hasan va Husan Ermatov, Mirxomid Miroqilovlardan iborat edi. Teatrning repititsiyalari “G'ishtko'prik” guzarida Mahmud Baratovning xovlisi (hozirgi Istiqlol 76 uy) da bo'lib o'tgan. Hamza Hakimzoda Niyoziy rejissyorligida tayyorlangan “Ilm xidoyati” nomli bir pardali komediya 1916 yilning may - iyun oylarida shahardagi “Xarbiy kengash” binosida saxnada namoyish etilgan. Hamza rahbarligidagi ushbu truppa 1919 y may oyidan Turkiston frontining siyosiy boshqarmasi ixtiyoriga o'tib, O'lka musulmon siyosiy truppasiga aylantirildi. Hamza



“NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI”

Hakimzoda Niyoziy 1918 yili Farg‘ona shaxrida ham teatrni tashkil qiladi. Ayni vaqtda yoshlardan “Qo‘qon dramtruppasi”ni tuzadi. Aynan 1918 yilda Hamza dramaturgiya soxasida o‘zining eng buyuk asari “Boy ila xizmatchi” p’esasini yaratadi.



Hamza asos solgan teatr binosi



1918 yilda yoshlardan tuzilgan “Qo‘qon dramtruppa”si

1918 yilda yoshlardan tuzilgan “Qo‘qon dramtruppa” 1919 yil boshlariga kelib tarqalib ketgan edi. Lekin Yu.Sultonov tomonlaridan nashrga tayyorlangan “Hamza. Tanlangan asarlar” kitobida keltirilishicha 1919 yil oktyabr oyida, interventlarga qarshi kurashning eng qizg‘in vaqtlarida, Hamza o‘zi tashkil qilgan “Qo‘qon dramtruppa” jamoasi bilan ixtiyoriy suratda Qizil armiya saflariga kirganligini malum qilgan. 1920 yilning oxirida Qo‘qon teatrining rivojlanishida katta burilish yuz berdi. Bu burilish Xamza va B. Baxtiyorovning xamkorligi bilan bog‘liq. Hamza bilan B. Baxtiyorov avvalgi truppaning tarqalib ketgan azolarini qidirib topadilar. Bu davrga kelib Hamza raxbarlik qilayotgan ushbu teatr jamoa azolari soni 30 dan oshib ketdi. Yana bir yangilik endi truppada ayollar xam ishtirok eta boshlashadi. Endilikda truppada 3 nafar ayollar (ikki rus qizlari Valya Mayorova, Marusya Kuznetsova va bir tatar qizi Fatixa Xannova) o‘zlariga berilgan obrazlarni maxorat bilan ijro eta boshladilar. Endilikda ushbu truppa xovlida emas, balki avval shaxsiy mexmonxona bo‘lgan Lenin (hozirgi Turkiston) ko‘chasidagi 24 uyda o‘z repititsiyalarini o‘tkazar edi. Bu yordamlari uchun Hamza Badriddin Baxtiyorovga minnatdorchilie bildiradi. Bu xolatni B. Baxtiyorov shunday xotirlaydi : “U kishi (Hamza) menga qarab turib eng avvalo raxmat dedi. Endi bizning xaqiqat nuri bilan jixozlangan xalq teatrimiz, milliy teatrimiz barpo bo‘lur”. 1918 yildan Hamza va Uyg‘ur (Uyg‘ur truppasi Toshkentda) truppasi xamkorlikni yo‘lga qo‘yadi va 1920 yil boshlarida ikki truppa birlashtiriladi. 1920 yil 12 fevraldan boshlab truppa xodimlari davlatdan maosh ola boshlaydilar. Bunga qadar truppalari o‘z qo‘ygan konsertlari xisobidan maosh olishgan. 1920 yil 17 dekabrda Toshkentdagi barcha mayda truppalari birlashtirilib “O‘lka o‘zbek namuna teatri” tuzildi va bu teatr 1931 yildan so‘ng “Hamza ” nomi bilan yuritilib kelingan. 1921 yilda o‘sha mashxur “Boy ila xizmatchi”, “Farg‘ona fojealari” kabi p’esalari saxnada aktyorlar tomonidan jonlantirildi. 1956 yilga qadar “Boy ila



xizmatchi” dramasi 500 marta saxna yuzini ko‘rdi. 1958 yilda Hamzaning asarlari rus, ukrain, turkman, qozoq, qirg‘iz, tojik, qoraqalpoq, gruzin, ozarbayjon, arman, tatar va boshqa qardosh xalqlar tillariga, shuningdek ingliz, fransuz, nemis, chex, polyak, xind, xitoy, arab, uyg‘ur, koreys va boshqa ko‘pgina chet ellar tillariga tarjima qilindi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy bu paytda o‘sha paytda mashxur bo‘lgan bir qator mashxur shaxslar bilan aloqa o‘rnatgan edi. Said Alievning “Unutilmas saxifalar” kitobida yozilishicha Hamza 1926 yilda Buxoroga borganligini Yusufjon qiziq Shakarjonov yozib qoldirgan. 1926 yilda Hamza Muxiddin Qori Yoqubov va mashxur raqqosa Tamaraxonim bilan xamkorlikda “Meni saylang” insseniroykasini saxnaga olib chiqqan. Bu xaqda Tamaraxonim “Ustozni eslaganda” nomli 1979 yilda “O‘zbekiston madaniyati” jurnalidagi maqolasida eslab o‘tgan.

1979 yil 28 sentyabr “Pravda Vostoka” gazetasida “Zametil i blagoslavlil” nomli maqola elon qilindi. Maqola muallifi Maryam Yoqubova. Maryam Yoqubova ham 1926 yilda Hamza bilan uchrashgan, Hamza saxnalashtirgan spektaklda obraz yaratganini ushbu maqolada yozib qoldirgan. Keyinchalik aktrisa 1939 yilda “Boy ila xizmatchi” da Xonzoda, “Maysaraning ishi” da Maysara obrazlarini muvaffaqiyatli ijro etgan.

Hamza Hakimzoda Niyoziyning yana bir qobilyati xaqida to‘xtalib o‘tishimiz kerak, ya’ni teatr uchun dramatik, komedik asarlar yozganligi. Quyida Hamza Hakimzoda Niyoziy tomonidan yozilgan asarlarning xronologik ketma-ketligini ko‘rishingiz mumkin:

1. “Zaxarli xayot yoxud ishq qurbonlari”. 4 pardali. 1916 y.
2. “Boy ila xizmatchi”. 4 pardali. 1918 y.
3. “Loshmon fojeasi” trilogiya. 5 pardali. 1916-1919 yillarda yozilgan.
4. “Kim to‘g‘ri”. 1 pardali. komediya. 1918 y.
5. “Tuxmatchilar jazosi”. 2 pardali. Komediya. 1920 y.
6. “Burungi qozilar yoxud Maysaraning ishi”. 3 pardali komedia.

Teatr o‘z bag‘rida Lutfixonim Sarimsoqova, Halima Nosirova, Nabi Rahimov, Hamza Umarov, Alixon Umarov, Murodjon Ahmedov kabi ulug‘ san’atkorlarni etishtirib berdi. Teatrda Saboxon Karimova, S.Axmedov, Murod Qo‘ldoshev, Obid Hasanov va boshqa iste’dodli aktyorlar; Raxima Mazohidova, Mahbuba Mansurova kabi xonandalar, Muxtorjon Murtazoev kabi bastakorlar faoliyat ko‘rsatdilar. Rashidxon Sodiqov, Shafolat Raxmatullaeva, X.Umarova, Madaminjon Jo‘raev, Azimjon Azizov, Bahromjon Sherko‘ziev kabi aktyor va rejissyorlar teatr faoliyatini muvaffaqiyatli tarzda davom ettirdilar.

Xulosa

Hamza Hakimzoda Niyoziy o‘zbek milliy teatri tarixida asoschilardan biri sifatida e’tirof etiladi. U 1915 yilda Qo‘qonda tashkil etgan teatr truppasi orqali milliy sahna san’atining poydevorini yaratdi. Keyinchalik bu harakat davlat teatri darajasigacha ko‘tarildi.

Hamzaning “Boy ila xizmatchi”, “Zaxarli hayot”, “Maysaraning ishi” kabi asarlari milliy dramaturgiya taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatdi.



Shuningdek, u teatrni xalq ma'naviyatini yuksaltirish vositasi sifatida ko'rdi va uning g'oyaviy-ma'rifiy yo'nalishini belgilab berdi. Milliy teatrning shakllanishi va rivojlanishida Hamzaning tashkilotchilik qobiliyati, ijodiy merosi va ijtimoiy faolligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
2. Sultonov Yu. (nashrga tayyorlovchi). Hamza. Tanlangan asarlar. – Toshkent.
3. Said Aliev. Unutilmas sahifalar. – Toshkent.
4. Tamaraxonim. Ustozni eslaganda // O'zbekiston madaniyati jurnali. – 1979.
5. Yoqubova M. Zametil i blagoslavil // Pravda Vostoka. – 1979, 28 sentyabr.
6. Qosimov B. O'zbek milliy uyg'onish davri adabiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat.
7. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'zbekiston.